

**Xonobod shahar axborot-kutubxona markazi**

**Axborot bibliografiya xizmati**

**“Xonobod shahrining asoschisi  
Solijon Mehmonov”**

Solijon Mehmonov tavalludining 100 yilligiga  
bag`ishlanadi



**ESDALIK**

**Xonobod 2024**

Xonobod shaxarning  
asoschisi  
Solijon Mehmonov  
(1924-1996)

Go`zal Xonobod ogushida bo`y  
cho`zayotgan har bir navniholni  
farzandi kabi mehr berib, umriga umr  
ni tikib,osmonida yulduz bo`lib  
porlagan ana shunday  
Bir fidoyi inson-Andijonning Solijoni  
edi.

## Kirish



Solijon Mehmonovich Mehmonov 1924 yilning 14 oktyabrida Xonobodning Fozilmon qishlogida oddiy dehqon oilasida tavallud topdi. Otasi Mehmonxo`ja akadan barvaqt yetim qolgan Solijon turmush qiyinchiliklariga erta duch keldi. Oilada onasi Xoshiyaxon otin oyi hamda opasi Qanoatxon bilan birga yashar, oila tashvishlari ko`proq o`spirin Solijon zimmasiga tushar edi. Oila a'zolarini boqish uchun mehnat qilish kerakligini anglagan Solijon tirikchilik ishlariga nisbatan erta kirishadi.

U hamqishloqlarining turli yumushlariga ko`maklashib, oila tirikchiligini o`tkazishga yetarli pul topa boshlaydi.Solijon ancha ulgayganidan keyin kolxozga a'zo bo`lib, mehnat qila boshlaydi. Ko`p o`tmasdan Xonobod qishlogida ishga tushirilgan "Tarandubitel" zavodiga yuk tashuvchi bo`lib ishga kiradi. Shu zavodda ishlab turganida armiyaga chaqirilib, urushga safarbar etiladi.

Ikkinchi jahon urushining u boshidan kirib bu boshidan chiqquncha necha o`lib.necha tirilgandir.Ikkinchi jahon urushida faol ishtirok etib,fashizm ustidan qozonilgan buyuk G`alabani ta`minlashga munosib hissa qo`shdi.El-yurtimizni urush yillarida ko`rsatgan mardlik va

qaxramonligi biz uchun ulkan jasorat maktabi, g'urur-iftixor manbai bo'lib, vaqt o'tgani sayin bu o'lmas qadriyatlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda.



Solijon Mehmonov urushdan keyin ham shu zavodda mehnat faoliyatini davom ettirdi. U o'zining mehnatsevarligi bilan ko'pchilik orasida hurmat-e'tibor qozonadi. Tez orada zavod rahbariyatining ham nazariga tushgan Solijon oddiy ishchilikdan usta darajasiga, keyinroq sex boshligi darajasiga ko'tariladi. U ishdan ajralmagan holda Toshkent xalq xo'jaligi institutining Iqtisodiyot fakultetida tahsil oldi. O'qishda olgan nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etib, zavoddagi ishlab chiqarish jarayonini takomillashuviga katta hissa qo'shdi. O'zini tajribali mutaxassis sifatida to'la namoyon etgan Solijon Mehmonov 1952 yilda "Tarandubitel" zavodi direktori etib tayinlanadi. S. Mehmonov direktorligi davrida "Tarandubitel" zavodida uch smenali ish tashkil etilib, korxonaning uzluksiz ishlashi uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar yaratildi. Ayniqsa, zavodning asosiy xomashyosi bo'lgan taron va chukri o'simliklarini madaniylashtirish, ular o'stiriladigan maydonlarni kengaytirish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha ham Solijon aka rahbarligida bir qator texnologik yangiliklar joriy etildi.



1972 yili Xonobodga shahar maqomi berilib, uni ma'muriy jihatdan boshqarish shahar ijroiya qo'mitasi orqali amalga oshirilishi belgilanadi. Shahar ijroiya qo'mitasi kengashining 1972 yildagi birinchi sessiyasida "Tarandubitel" ishlab chiqarish birlashmasining bosh direktori Solijon Mehmonov Xonobod shahar ijro

qo`mi rasi etib saylanadi va u 1993 yilgacha shaharga rahbarlik qildi. Solijon Mexmonov Xonobod shahrining birinchi rahbari sifatida shahardagi barcha qurilish va bunyodkorlik ishlariga bosh-qosh bo`ldi. Shaharda uy-joylar, ijtimoiy-madaniy ob`ektlar qurilishi izchil va to`xtovsiz yo`lga qo`yildi, obodonlashtirish va ko`kalamzorlashtirish ishlari kun sayin jonlantirib borildi. Shaharni ko`rkam va obod qilish maqsadida bosh arxitektor bilan eng zamonaviy shahar loyixasini ishlab chiqdi. Ayni paytda, kelgusida shahar aholisini ish bilan ta'minlashdek muhim vazifalarni ham hal etish zarur edi. Bu vazifalarni hal etish har tomonlama



izlanishlarni talab etardi.

Solijon Mehmonov shaharda yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, madaniy-maishiy binolar qurish, shaharni xushmanzara maskanga aylantirishdek ulugvor ishlarga jiddiy

e'tibor berdi. Shaharni ko`kalamzorlashtirishda 100 xildan ortiq buta va manzarali daraxtlar ekilib, parvarishlandi. Masalan, shahar ko`chalari va hiyobonlarga archaning 7 xil navi, dub, lipa, oqqayin, kashtan, sosna kabi noyob daraxtlar ekildi. Aytishlaricha, Solijon aka Kavkaz, Ukraina va Rossiyaning o`nlab kurort zonalariga borib, bu yerlarda o`sadigan noyob o`simliklar ko`chati va uruglarini olib kelib ektirgan. Keltirilgan ushbu o`simlik va daraxtlarning aksariyati Xonobod iqlimiga moslashib, bugungi kunda shahar hiyobonlari va boglarining ko`rkiga ko`rk qo`shib turibdi. Solijon Mehmonov shahar rahbari sifatida faoliyat olib borgan davrida ittifoqning ko`pgina shaharlaridagi sihatgohlarda bo`lib, eng yaxshi kurort va sanatoriylar ko`rinishidan andozalar olib yurgan. Xonobod shahrida ulardan ham yaxshiroq va ko`rkamroq dam olish maskanlari, shifoxonalar barpo etish harakatini boshlagan. Uning sa'y-harakatlari bilan adirlikning so`lim joyiga oshxona va choyxona ochildi. Shahar istirohat bogiga butun

shahar manzarasini tomosha qilish imkonini beruvchi ulkan charxpalak o`rnatildi.



1977yili O`rta Osiyoda birinchi bo`lib shahar markazini adit tepasidagi dam olish maskani bilan bog`lovchi 1210 metrli uzunlikdagi osma sim yo`li qurildi. Solijon akaning yana bir ezgu ishlaridan biri Xonobod shahrida ommaviy xalq sayillari va turli madaniy-ma`rifiy ko`ngilochar tadbirlar tashkil etishni an'anaga aylantirganligidir. Bu ommaviy ko`ngilochar tadbirlarda xalq suygan taniqli xofizlar, atoqli san`at arboblari va kulgi dargalari mehmon bo`lishib, shahar ahli ko`nglini shod etishi an'ana tusini olgan.



Solijon Mehmonov Xonoboddek so`lim va ko`rkam maskanda tugilib kamol topdi va shu maskanda sidqidildan mehnat qilib, halol mehnati bilan el-yurt hurmati va mehrini qozondi. Solijon Mehmonovni shahar aholisigina emas, balki viloyat va Respublikamizning juda ko`plab kishilari taniganlar va qadrlaganlar. Solijon Mehmonov turmush o`rtog`i Valeriya Andreevna bilan mazmunli hayot kechirib, ikki o`gil va ikki qizni tarbiyalab, voyaga yetkazdilar. Bugungi kunda ularning barchasi o`qimishli, turli kasb egalari sifatida xalqimiz xizmatidalar. Solijon Mehmonovning Xonobod shahrida amalga oshirmoqchi bo`lgan xayrli maqsadlaridan biri shaharning adir qismida Kavkaz diyoridagi sihatgohga monand dam olish maskani bunyod etish edi. Bu maqsadni amalga oshirish Solijon Mehmonovning o`ziga nasib etmadi. Ogir betoblik uni 1996 yilning 26 avgust kuni oramizdan olib ketdi. Solijon akaning ulug` maqsadarini ro`yobga chiqarish shogirdlariga qoldi. Solijon aka Mehmonovning ezgu ishlari va nomi bugungi kunda

butun mamlakatga mashhur boʻlgan Xonobod deb atalmish goʻzal maskanda birga ishlagan doʻstlari, safdoshlari va shogirdlari hamda uni bilgan kishilar qalbida mangu yashaydi. Solijon Mehmonov 1972-1993 yilgacha keyingi 20 yilda Xonobod shahar ijroqoʻmining raisi vazifasida faoliyat koʻrsatdi. Solijon Mehmonov juda talabchan, lafzi halol rahbar edi.



Solijon aka shunday inson edi. Duoga sidqidildan ishonar, suyanar va oʻzi oʻzgalarni tinmay duo qilar edi. Otadan u juda erta ayrildi, ammo tayanchi, suyanchi boʻlmasa-da otasidan qolgan aqchasi, rizq undirguday bogchasi boʻlmasa-da, bilib yurdiki, u ota duosi bilan oʻlmay sarbaland boʻldi. Etimlikning elvizak urgan bekatlarida onasining duolari uni sindirmay asradi. Uni “Solijon Mehmonov” qilib tanitgan bu zabardast qoʻllar, bus obit oyoqlar, lochinday bu qarashlar, etmish ikki tomiriga sigolmay tugyon urayotgan bu gayratlar elning duosidan uzatilayotgan quvvat ekanligini ruhan his etib yashardi! Uning aqliga uchqurlik bergan, qulfi dilini ochgan ham odamlarning duosi boʻlgan boʻlsa ajab emas...

#### Xonobodim

Isming jismingga mosdur, kunshiqfrim Xonobod,  
Mustaqillik davrida yanada boʻlding obod.  
Muzdek togʻing havosi shishadek shaffof suving,  
Pokiza shaharchani koʻrib Solijonim sod.

Temir izli karvonim “Oʻzbekiston” eladi,  
Poytaxt va atroflaridan koʻplab mehmon keladi.  
Sihatgohlar koʻpayar chiqadi xordigingiz,  
Kelajakda Xonobod Shvetsariya boʻladi.

N. Boltaboyev.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sodiqova, T. Andijonning Solijoni (badiialar) -Toshkent:"Davri Press",2008.
2. Домлажонов Х, М.Абдуллаев. Хонобод ва Хонободликлар - "Андижон нашриёт-манбаа" МЧЖ, 2022. 272 б.
3. Олимжон Холдор Сайланма: III жилд [Роман ва қисса] -Тошкент "Шарқ", 2002-368 б.

## INTERNET RESURSLAR

4. АНДИЖОННИ СОЛИЖОНИ. ХОНОБОД ш. (г. СОВЕТАБАД) С. МЕХМОНОВ

Хонобод шаҳрининг биринчи хоқими, фахри, самимий инсон С. Мехмонов хотирасига.

<https://youtu.be/G-FM5VVPBTQ?si=WYzjTfhL5Jx6unFf>

Xonobod shahrining asoschisi Solijon Mehmonov. (Solijon Mehmonov tavalludining 100 yilligiga bag`ishlanadi): esdalik / Tuzuvchi: G.Aminova -2024.-5b.